O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi	**"TASDIQLAYMAN"**
№ _____	SamGU rektori
2021 y. «___» _____	_____ prof.R.I.Xalmurodov
	"___" _____2021 yil

UMUMIY PEDAGOGIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi Boshlang'ich ta'lim sport, tarbiyaviy ish
(2-kurs sirtqi yo'nalishlari uchun)

Samarqand – 2021

Fan dasturi "Fakultetlararo Pedagogika" kafedrasida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2021 yildagi __ - sonli bayyonnoma)

Tuzuvchilarlar:

L.Suyarova -"Fakultetlararo Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

S.Qulmurodova -"Fakultetlararo Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

M. Mirsaidova -"Fakultetlararo Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

K.Hasanova - Samarqand davlat universiteti "Fakultetlararo Pedagogika" kafedrasi mudiri,professor

Kiyamov N.S. Pedagogika fanlar doktari, professor

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI • SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

Fakultet dekani: **dots. S.O'roqov**

Kafedrasi mudiri : **prof.K.Hasanova**

O'quv ishlari bo'yicha prorector: **prof. A.Soleev**

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2021 yil _____dagi ____-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Kirish

Mazkur dastur bo'lgusi kasbiy faoliyati pedagogik madaniyat va layoqatni taqozo qiladigan talabalar uchun ishlab chiqilgan. Pedagogik bilimlar talabalarda o'quv va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash xamda amalga oshirish omili sifatida insonning shaxsiy xususiyatlari xakidagi yaxlit tasavvurni shakllantirishga, ukish, akliy mexnat madaniyati va mustakil ukib bilim orttirish kunikmalarini rivojlantirishga yordam beradi xamda inson va jamiyatning pedagogik tabiatini bilishga tayangan xolda samarali karorlar kabul kilishga imkon tugdiradi.

Ushbu dastur pedagogikaning obyekta, predmeti, vazifalari va metodlari; pedagogikaning asosiy kategoriyalari: ma'rifat, ta'lim (ukitish, ukish, uzlashtirish), tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyati, pedagogik faoliyat, pedagogik mulokot, pedagogik texnologiya; ma'rifat - umuminsoniy kadriyat, ijtimoiy-madaniy xodisa va pedagogik jarayon sifatida; Uzbekistan Respublikasining ta'lim tizimi; uzluksiz ta'limning maksadi, mazmuni va tuzilishi; ta'lim va mustakil ukib bilim orttirishning birligi; pedagogik jarayon; ta'limning ma'rifiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchi vazifalari; pedagogik jarayondagi tarbiya; o'quv faoliyatni tashkil etishning umumiy shakllari: dars, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashgulotlari, baxs-munozara, konferensiya, sinov, imtixon, fakultativ mashgulot, maslaxat; pedagogik jarayonni tashkil etish va boshkarish metodlari, usullari va vositalari; oila - pedagogik xamkorlik xamda shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muxiti subyekti sifatida; ma'rifiy tizimlarni boshkarish kabi masalalarni kamrab oladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarning umumiy va pedagogik madaniyatini oshirish, inson faoliyatining muvaffakiyatli bulishlik omili sifatida pedagogik uziga xos xususiyatlar xakidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustakil fikrlash va shaxsiy xatti-xarakatlari okibatlarini oldindan sezish, mustakil ukish va uz imkoniyatlarini aynan baxolash, maksadga erishish va xayotiy kiyinchiliklarni bartaraf etishning makbul yullarini mustakil topish buyicha pedagogik bilim va kunikmalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - pedagogika fani tarakkiyotining asosiy yunalishlari bilan tanishish; ma'rifiy (ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyatini tavsiflovchi) tushunchalar majmuini uzlashtirish; ukishga va kasbga oid muammoli vaziyatlarni taxlil kilish; zamonaviy ta'lim jarayonini loyixalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish, uning borishi va natijalarini tashxis kilishning nazariy asoslarini uzlashtirish; ta'lim oluvchilar, ishlab chikarish xodimlari bilan tarbiyaviy ishlar metodlarini egallash; o'quv mashgulotlarining asosiy turlarini utkazish va ularga tayyorgarlik kurish kunikmalarini shakllantirish; kasbiy tafakkur, texnik ijodiyotni rivojlantirish metodlari bilan tanishish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Pedagogika" o'quv fanini uzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- pedagogikaning obyekti, predmeti va metodlari, uning fanlar tizimida tutgan urni va asosiy tarmoklari; shaxsni shakllantirishda, insonning xulk-atvori, mulokoti va faoliyatida ta'lim va tarbiyaning tutgan urni haqida ***tasavvurga ega bulishi;***
- pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalarini; ta'lim va tarbiyada irsiyat va ijtimoiy muhitning uzaro munosabatini, milliy va madaniy-tarixiy omillarning tutgan urni va ahamiyatini; pedagogik faoliyatning asosiy qonuniyatlari, prinsiplari, shakllari, vositalari va metodlarini; ma'rifiy jarayonlarda va ijtimoiy muhitda ta'lim, tarbiya va shaxs kamolotining obyektiv alokalarini ***bilishi;***
- pedagogika fanining asosiy tushuncha va terminlarini; psixologik-pedagogik taxlil kilish va loyixalash usullarini; ma'rifat (ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyati), ma'rifiy jarayonlar va

ularning moxiyati xakidagi bilimlar tizimini; zamonaviy ta'lim texnologiyalarini; uqish va bilishga oid faoliyatni tashkil kilish yullarini; ta'lim va tarbiya sifatini nazorat qilish shakllari va metodlarini ***egallashi;***

-kasbiy uzaro aloqadorlik va hxamkorlikdagi faoliyat samaradorligini oshirish uchun psixologik-pedagogik ta'sir kursatish metodlari va shakllarini qo'llash; pedagogik prinsiplarni hisobga olib, turli shakldagi o'quv mashgulotlari va tarbiyaviy tadbirlarni utkazish; pedagogik vazifalarni aniklash va yechish, o'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha oddiy malakalarni egallash; yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni utkazish; egallangan bilimlarni jamoada ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish uchun qo'llash va ulardan o'z amaliy faoliyatini tahlil qilishda foydalanish ***kunikmalarini uzlashtirishi*** kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Pedagogika» fani bakalavriat yunalishlarining o'quv rejalaridagi fanlar tizimida uziga xos urin egallaydi. U inson va jamiyatni urganadigan barcha fanlar, xususan, biologiya, ekologiya kabi tabiiy fanlar xamda falsafa, tarix, sosiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, xukukshunoslik kabi bir kator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzaro bogliklikda urganilib, mazkur fanlardan yetarli bilim va kunikmalarga ega bulish talab etaladi.

Ushbu o'quv fani buyicha nazariy va amaliy mashgulotlarda biogenetik konunlar, psixologik nazariyalar, falsafiy karashlar, tarixiy jarayonlar va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy uzgarishlar e'tiborga olinishi lozim.

Fanning ta'limdagi va ishlab chikarishdagi o'rni

"Pedagogika" bakalavriat o'quv rejalarining "Gumanitar va ijtimoiy-iktisodiy fanlar" blokidagi integrativ o'quv fani bulib, inson va jamiyatning ilmiy-amaliy muammolarini ma'rifiy-metodik yechishda fanlararo va aloxida fanlar kesimida uz amaliy tavsiyalari, uslubiy vositalari bilan ishtirok etadi.

Mazkur o'quv fani bakalavrlarda bulgusi mexnat jamoalaridagi ishlab chikarish faoliyati uchun zarur buladigan xizmatga oid munosabatlarni metodik jixatdan tugri urnatish, jamoa a'zolarining birgalikdagi amaliy faoliyatini makbul tashkil etish, ta'lim, tarbiya va mustakil ukib bilim orttirish borasidagi ilgor tajribalardan ijodiy foydalanish kunikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning raxbarlari jamoadagi psixologik muxitni, uz xodimlarining xulk-atvorini va ularga pedagogik ta'sir kursatish yullarini xisobga olmasdan boshkaruvning tashkiliy masalalarini muvaffakiyatli yecha olmaydi. Pedagogikaning nazariy va amaliy masalalarini uzlashtirish nafakat raxbarlar nufuzini oshiradi, balki mexnat jamoalaridagi amaliy vazifalarni samarali xal etishga imkon beradi. Demak, "Pedagogika" o'quv fanini urganish bulgusi bakalavrlarni nafakat ishlab chikarishdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashni, balki ularni shaxs sifatida xar tomonlama kamol toptirishni, shuningdek oilasi, mexnat jamoasi va jamiyatdagi burchi va vazifalarini samarali ado etishni ta'minlaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"Pedagogika" o'quv fanini urganish va uning mazmunini uzlashtirish uchun ta'limning ilgor va samarali usullarini kullash, yangi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muxim axamiyat kasb etadi. Fanning mazmun-moxiyatini uzlashtirishda ta'limning zamonaviy texnik vositalari, darsliklar, o'quv va uslubiy kullanmalar, ma'ruza matnlari, tarkatma va elektron materiallardan keng foydalaniladi. Ma'ruza va seminar mashgulotlarining mavzulari va mazmuniga muvofik bulgan pedagogik texnologiyalar kullaniladi.

"Pedagogika" fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh. O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

" Pedagogika" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Powyer Point" taqdimotlar dasturidan foydalaniladi.

Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI

Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari. Yagona pedagogik jarayon.Didaktika-ta'lim nazariyasi sifatida.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari va asosiy kategoriyalari (tarbiya, o'qitish, ta'lim).

Pedagogika fanining tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va bog'liqligi. Pedagogikaning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya va boshqqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi. Pedagogik fanlar tizimi.

Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi. Pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy (adabiyotlar bilan ishlash, ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, ilg'or tajribalarni o'rganish va boshqalar) va amaliy (pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, anketa, suhbat, test so'rovi va boshqalar) jihatlari.

Pedaggogik antropologiya. "Individ" va "shaxs" tushunchalarining mohiyati. Ingdivid va shaxsning o'ziga xos jihatlari. Shaxsning biologik va ijtimoiy rivojlanishi. Shaxs biologik va ijtimoiy rivojlanishining o'zaro uyg'unligi. Shaxsning yosh va individual-psixologiya xususiyatlari.

Ta'lim nazariyasi (didaktika)-pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida. "Didaktika" tushunchasining mohiyati. Ta'lim nazariyasining maqsadi va vazifalari. Didaktikaning vazifalari, asosiy tushunchalari. Didaktika nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim paradigmalari. Ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilmasi. Ta'lim prinsiplari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (dasturi ta'lim, modul ta'limi, innovatsion ta'lim, interfaol ta'lim, muammoli ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, rivojlantiruvchi ta'limi, masofaviy ta'lim, mustaqil ta'limi, o'yin texnologiyalari).

Ta'lim mazmuni, davlat ta'lim standartlari. Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini belgilashning etakchi g'oyalari. Ta'lim mazmunini shakllantirish prinsiplari. Ta'lim mazmunida milliy va jahon tajribalarini muvofiqlashtirish. Davlat ta'lim standartlari va ularni hayotga tadbiq etish. Umumiy o'rta davlat ta'lim standarti. O'rta maxsus va kasb-hunar davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. O'quv rejalar. O'quv dasturlari. Darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi. O'quv rejalari, dasturlari va darsliklarini yaratishga yangicha yondoshuv. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklaridan ijodiy foydalanishga yo'llash.

Ta'lim mazmuni.Ta'limning qoida va qonuniyatlari

O'zbekiston Republikasida milliy dasturning maqsadi va vazifalarida:

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish zarurligi alohida ta'kidlangan. Shunga asoslanib maktab ta'limining mazmuni jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning talabalardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Yuqoridagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishlari shu jamiyat uchun qanday tarbiyalangan mutaxassislarga bo'lgan talablarga asoslanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin: jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, shu jamiyat a'zolarini tarbiyalashning maqsadini, tarbiyaning maqsadi esa o'z navbatida maktab ta'limning mazmunini belgilashga asos bo'ladi. Buni sodda etib tubandagicha izohlash mumkin:

jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish → tarbiyaning maqsad va vazifasini va u o'z navbatida → maktab ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'ladi.

Yoki bu tuzilishning aks holda ko'z oldimizga keltirib tasavvur etsak yanada ravshanroq anglaymiz.

maktab va ta’limi (ma’lumot) mazmuni→tarbiyaning maqsadi va vazifasini u o’z navbatida→jamiyatning ijtimliy rivojlanishini jadallashtiradi, takomillashtiradi.

Maktab ta’limining mazmuni deganda, o’quvchilarning o’qish jarayonida barcha o’rganiladigan fanlardan egallab olishi lozim bo’lgan hamda tizimga solingan bilimlar, ko’nikmalar va dunyoqarashlarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu jarayon maktab o’quv rejasida ko’rsatilgan har bir o’quv dasturida asoslangan barcha o’rganiladigan fanlari asoslari asosida tarkib topadi.

Ta’limning mazmun bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

a) ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari ijtimoiy tuzumning xususiyatlari, yo’nalishlari;

b) davlatning xalq ta’limi va muayyan turdagi o’quv yurti oldiga qo’yadigan maqsad va vazifalari;

c) o’qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o’quvchilarining imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari, rivojlinish darajasi, tarbiyalanganligi va boshqalar) e’tiborga oluvchi didaktik talablar. Maktablarda beriladigan ta’limning mazmuni tarixiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta’limning mazmuni, hajmi ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan. Inqilob to’ntarishgacha bo’lgan davrida O’zbekiston xududida VII -VIII asrlardan beri kelgan eski - “usuli qadmiya”, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo’lgan - “usuli savtiya” maktablari, xad - savod o’rgatadigan diniy maktablar bo’lgan. 1905 yildan so’ng, o’lkaning ba’zi yirik shaharlarida “jadid” maktablari paydo bo’lib unda savdo - sotiq ishlari uchun zarur bo’lgan ayrim fanlar (hisob, tibbiyot, geografiya va boshqa) o’qitilar edi.

O‘qitish metodlari va vositalari. Ta’limni tashkil etish shakllari.

“O‘qitish metodlari” va “usullari” tushunchalarining mohiyati. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitish metodlarining asosiy turlari (og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, shaxsni faollashtiruvchi va boshqalar). SHarq mutafakkirlari ta’lim metodlari haqida. Turli yoshdagi o‘quvchilar guruhlarida ta’lim metodlarini samarali qo‘llash shartlari. O‘qitish metodlarini tanlashga qo‘yiladigan talablar.

O‘qitishning zamonaviy vositalari. O‘qitishda ko‘rgazmali vositalar. O‘qitishda texnik vositalar. O‘qitish vositalarining didaktik imkoniyatlari..

Ta’limni tashxis etish. O‘quvchilar bilimini tashxis etish didaktik tushuncha sifatida. Ta’lim natijalarini tekshirish va baholashga qo‘yiladigan talablar. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini hisobga olish turlari, shakli va metodlari.

O‘quv bahosi va belgidagi farqlar. Baho, belgi va ball o‘rtasidagi farqlar. Baholash, uning funksiyalari va turlari. Noholis pedagogik baholash sabablari.

O‘zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari. O‘zlashtirishni tekshirish bosqichlari. Pedagogik jarayonda bilimlarni nazorat qilish funksiyalari va shakllari. O‘quvchilar bilimlarini nazorat qilish metodlari.

Nazorat tadbirlarini o‘tkazish muammolari va uning psixologik-pedagogik xususiyatlari. O‘quvchilar o‘zlashtirishi va bilim sifatini baholashning reyting tizimi. Pedagogik testlar. Bilimlarni test usulida baholashning afzalligi va kamchiliklari. Test sinovlarini biilmlarni nazorat qilish shakllaridan biri sifatida. Bilimlarni test usulida nazorat qilish shakllari.

Ta’limni tashkil etish haqida tushuncha. “Ta’limning tashkiliy shakllari” tushunchasining mohiyati. Ta’limning asosiy shakllari (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti va boshqalar). O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga asoslanib ta’lim shakllaridan foydalanish.

Sinf-dars tizimi. Dars-o‘qitishning asosiy tashkiliy shakli. Darsni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablar. Dars turlari. Zamonaviy sharoitda darslarni takomillashtirish yo‘llari. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars rejasi. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi.

Ta’limning boshqa shakllari: o‘quv sayohat, seminar, amaliyot, uy vazifasi va boshqalar.

Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari: o‘quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o‘yinlar, trening, press-konferensiya, zehnlilar klubi, musobaqa darslari va boshqalar.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya prinsiplari.

“Tarbiya” tushunchasining mohiyati. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida. Tarbiya jarayoni mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. Tarbiya tamoyillari. Unga qo‘yiladigan talablar tavsifi. Tarbiyaning ijtimoiy yo‘nalganligi va yaxlitligi: tarbiyaning ijtimoiy hayot mehnat faoliyati bilan aloqadorligi: har bir o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos va shaxsiy munosabat hamda xususiyatini hisobga olish. Tarbiyaning ta’sir etishida yagona talab va uyg‘unlik.

Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, , Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.

Tarbiya metodlari. Tarbiya turlari

Milliy tarbiya-“ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishning muhim omili. O‘quvchilar jamoasining shaxs rivojlanishidagi o‘rni. O‘quvchilar jamoavsi-yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli. Shaxsning jamoada qaror topishi. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. O‘quvchilar jamoasining asosiy belgilari, tarkibiy tuzilmasi. O‘quvchi yoshlar uyushmasiga pedagogik rahbarlik.

Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalari. Shaxsda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish. Ekologik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari. Shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasida davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari: tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamkorlik.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Yoshlar o‘rtasida xulq buzilishining oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati.

“Axloq” tushunchasining mohiyati. Axloq-ijtimoiy ong, ta’sir ko‘rsatish, tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining shaxs ma’naviy sifatlari to‘g‘risidagi g‘oyalari.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va vositalari.

Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning turmush tarzi, urf-odatlar, an’analari.

Oilada o‘quvchilarga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Oilada jinsiy tarbiya.

Shaxsni kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ta’lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni.

Nafosat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Maktab nafosat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.

Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o‘rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi.

Ta’lim muasasasasi menejmenti

“Boshqaruv” (“menejment”) tushunchasining mohiyati. Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish maqsadi, vazifalari, mazmuni, prinsiplari, shakllari, metodlari. Ma’rifiy tizimlarini boshqarish haqida tushuncha.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risda”gi qonunlarida ta’lim tizimini boshqarish masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari. Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari.

Ta’lim muassasasini boshqarish masalalari. Ta’lim turlari bo‘yicha ta’lim muassasalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta’lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi.

O‘zbekiston ta’lim taraqqiyoti muammolari va istiqbollari.

Maxsus (korreksion) pedagogika

“Korreksion pedagogika” tushunchasining mohiyati. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ijtimoiy yordamga muxtoj bolalar va o‘smirlarni o‘qitish haqida.

Korreksion pedagogikaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metod va vositalari.

Korreksion pedagogikaning tarkibiy qismlari (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopelagogika, logopediya).

Anomal (anomatik, fiziologik va ruhiy jihatdan nuqsoni bo‘lgan) bolalar va ularning tavsifi, ularning rivojlanmaslik sabablari.

Ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida tarbiya jarayoni.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash.

Tayanch a’zolari harakatida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash.

Xulqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hamda o‘smirlarning ijtimoiy ahvoli.

PEDAGOGIKA TARIXI

Sharq uyg‘onish davri va XVI-XVII asrlarda Movarounnaxrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. XIVasrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarda Movaraunnahrda tarbiya va maktab. .

Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat, al-Xorazmiy va al-Farg‘oniylarning ilmiy merosi va ularning didaktik qarashlari. Al-Farobiyning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va uning ilmiy pedagogik merosidan foydalanish. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va uning merosidan foydalanish. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va uning merosi va uning pedagogik fani taraqqiyotidagi o‘rni. Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik hamda didaktik g‘oyalari.

Mahrmud Qoshg‘ariyning “Devont lug‘atit turk” asari.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida pedagogik fikr taraqqiyotining tutgan o‘rni.

XVII asrdan XZIX asrning yarmigacha tarbiya maktab va pedagogik fikrlar rivoji.XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda tarbiya va ta'lim tizimi

XIV asrning 50 yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etdi. Madaniyat, maorif qaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg`onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

Temur Movorounnahrga boshqa o`lkalardan hunarmandlar, olimlar, san'atkor, muxandislarni olib keltirdi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografi, tarix, adabiyot, falsafa, tarbiyashunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi.

Temurdan so`ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatlariga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Hirot madaniyati, ilm - fan markaziga aylandi.Shoxizinda, Guriamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog`lar va boshqalar barpo etildi.

Ulug`bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va diniy bilimlarga e'tibor berildi. Buxoro, Samaraqnd, Fijduvonda madrasalar qurildi.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Hofizu Abru "Zubdan tavorix" (Tarixning qaymog`i) kitobi yozib, unda 1427 yilgacha voqealar bayon etildi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib, "Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo`shilish joyi" asarida 1471 yilgacha voqealarni bayon etdi. "Ravzatus safo" asrini yozgan Mirxond, "Xabibus siyar" asarini yozgan Xondamir asarlarining bir qismi sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag`ishlandi.

Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yollab o`qitish odat tusiga kirdi. Shahar, qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o`qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe urganar, ayrim harflarni chizishni mashq qilar edilar. O`quvchilar maktablarda savod chiqargacha madrasaga kirib diniy va dunyoviy fanlardan bilim olardilar.

.

PEDAGOGIK MAHORAT

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, Pedagogik texnika va o'qituvchi mahoratini takomillashtirish yo'llari

O'zbeksiton Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchilar faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat. Pedagogik qobiliyat. O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat.

Pedagogik muloqot. Muloqot-pedagogik hamkorlik vositas sifatida. Muloqotning mohiyati va tuzilishi. Muloqot vositalari va turlari. SHaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos tabiati. Pedagogik o'zaro munosabatlar mohiyati.

Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi. Pedagogik muloqot uslublarining tasnifi va xususiyatlari. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari. Pedagogik

jarayondagi nizolarning mohiyati va ularniing kechish davrlari. Pedagogik jarayondagi nizolarning turlari va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Pedagogik faoliyat funksiyalari va ularga muvofiq pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shakllanganligi. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.

Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Mutafakkirlar va pedagoglarning so‘z va nutqning ijtimoiy jamiyatda tutgan o‘rni va roli haqidagi qarashlari. Nutqning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot jarayonidagi asosiy bog‘lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari, nutq apparati. Til va nutq. Og‘zaki nutqning psixologik tuzilishi; maqsadi (nima uchun gapirayapman?), mazmuni (nima demoqchiman?). nutq madaniyati haqida tushuncha, uning usullari. Nutq texnikasi, nafas olish, ovozni yo‘lga qo‘yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur’ati. O‘qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo‘llari.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim-tarbiya va maktab

AQSh ko’p millatli mamlakat. Shunga ko’ra har bir millat bolalari o’z ona tilini , milliy urf odatlarini, dinini bog’chalarda o’rganadilar.

Amerika maktablarida o’quv tarbiya ishlari bilan bog’liq masalalarni har bir shtat o’ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega.

Amerika maktablarida o’qish har bir o’quvchi uchun faxr-iftixor bo’lishiga, o’z bilimi imkoniyatiga ishonch hissini tarbiyalashga katta e’tibor beradi. O’quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo’lib qolishlari favqulotda salbiy holat bo’lib hisoblanadi. O’quvchilar boshlang’ich maktabni bitirganidan so’ng qo’yi (7-8-9 sinflar) o’rta maktabda o’qishni davom ettirishadi. Bu maktabni muvafaqiyatli o’tganlar yuqori, o’rta (10-11-12 sinflar) maktabga qabul qilinadi. O’quvchilar ma’lum bir sinfni, kursni yoki maktabni bitirishda test sinovlari topshiradilar.

O’rta maktablarda o’quvchilar o’zlari yoki ota-onalari tanlagan yo’nalishlarga mos holda predmetlar tanlashda erkinliklar berilgan.

O’rta maktab o’quvchilari kundalik faoliyatlarida yarim vaqtini o’quv sinflarida qolgan vaqtini kutubxonada, labaratoriya, tajriba uchastkalari, amaliyot uchun mo’ljallangan joylarda o’tkazadilar.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

